

TONG Yulduzi

№33 (66366)

2002 yil

12 avgust,

dushanba

Sotuvda

erkin narxda

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqa boshlagan.

Maktabga borgach,
yaxshi o'qib ketishni
xohlagan bolalar bizning
maslahatlarimizga
a m a l

Aziz bolajonlar! Hademay maktab boshlanadi.
Siz maktabga borishga tayyormisiz? Har bir
bola bu savolga javob berishini istardik.

bilan tinglab tushunib
oling va uyda mustaqil
ravishda o'zingiz
bajarishga harakat
qiling.

MAKTAB OSTONASIGA YAQIN QOLDI!

O'qituvchi minbari

qilishlari uchun
quyidagilarni opa-
akalariga o'qitib olishlari
mumkin:

1.Kun tartibiga rioya
qiling. Maktabga
borgach, yangi kun
tartibida o'qiysiz, dam
olasiz va o'ynaysiz.

2.Ko'proq ochiq
havoda bo'lishni,
harakatli o'yinlar
o'ynashni odat qiling.

3.Maktabga borgach,
sinf jamoasida o'zingizni
yaxshi tuting.
O'qituvchingiz va
o'rtoqlaringizni hurmat
qiling.

4.Dars jarayonida
qanday o'tirish qoidasiga
amal qiling, chunki bu
odat sizga bir umr tartibli
bo'lishga yordam beradi.

5.O'qituvchi
topshiriqlarini diqqat



- Dugonajon, hademay yana qadrdon maktabimiz
bag'riga qaytamiz-a, - deyishyapti poytaxtimizdagi
«Orom» nomli bog'cha-maktab o'quvchilari.
Bu maktab haqidagi maqolani gazetamizning
5- sahifasida o'qiysiz.

6.Darslik va o'quv
qurollaringizni yaxshi
saqlang.

7.Tozalik, intizom va
tejamkorlikka alohida
ahamiyat qiling.


8.Xotirangizni
mustahkamlash uchun
ko'proq kichik matnlar,
topishmoq, maqol, tez
aytish va she'rlar yod
oling.

9.Sport bilan
muntazam shug'ullaning,
suvda suzishni o'rganing.

10.Vaqtingizni to'g'ri
taqsimlang va tejang.
Televizorda faqat bolalar
uchun beriladigan
ko'rsatuvlarni ko'ring.
Badiiy kitoblar bilan
tanishing.

Sizlarga omad tilab,
Qumri
ABDULLAYEVA.

Mustaqil yurt bolalari — iqtidorlidir.



Olti yoshidan 1- sinfga qabul qilingan Irodaxonning quvonchi cheksiz edi.

Chunki u tezroq maktab o'quvchisi bo'lishni xohlagandi- da. Qizgina maktabni a'lo baholar bilan boshlab yubordi. Shuning uchun ham «Alifbe» bayramida boshlovchilik qilish unga ishonib topshirildi.

O'shanda Irodaxonning jarangdor ovozi, ziyrakligi, bilimdonu quvnoqligi bayram

ishtirokchilariga birdek ma'qul bo'lgandi.

Biroq, qizaloqning quvonchi uzoqqa cho'zilmadi. U og'ir dardga chalindi. Qulog'i umuman eshitmaydigan va yaxshi gapirolmaydigan bo'lib

qoldi. Natijada Iroda II- guruh nogironiga aylandi.

- O'sha kezlarda hayotga qiziqishim, yashashga ishtiyoqim butunlay so'ngan edi, deydi Jizzax viloyati,

ISMI JISMIGA MONAND

AYOLI BAXTLI EL...

Yo'li nurdan bo'lsin, osmondan taxti,
Doim yangrab tursin Ayolning madhi.
To'la-to'kis bo'lsin Ayolning baxti,
Ayoli baxtli el — eng baxtli eldir.

Birining ortidan biri bosib iz,
Yuraklarga solib o'tar yorqin his.
Ayol borki, hayot tuyular aziz,
Ayoli baxtli el — eng baxtli eldir.

Yo'lidan uzilsin dushman qo'ygan to'r,
Yuzlarida balqib tursin kulgi, nur.
Farzandi rohatin ko'rsin bir umr,
Ayoli baxtli el — eng baxtli eldir.

Iroda UMAROVA.

Forish tumani, Garasha qishlog'idagi 79- maktabning 9- sinf o'quvchisi Irodaxon Umarova. - Atrofimdagilarning mehr-muhabbati, e'tibori meni hayotga qaytardi. Do'stlarimning shirinso'zligi, ustozlarimning talabchanligi va albatta ota-onamning mehribonligi tushkunlikka tushmay, yashash uchun kurashga undadi.

She'riyatga, tasviriy san'atga qiziqishim orta bordi. 6- sinfdan matbuotda she'rlarim, chizgan rasmlarim e'lon qilina boshladi. Ko'plab do'stlar orttirdim. Ayni paytda kitobimni chiqarish harakatidaman.

- Iroda - irodali



Shoira Zebuniso.

qiz,- deydi uning ustozlari ona tili va adabiyot o'qituvchisi To'liqin Fozilov. - Tabiatning bu notantiligini matonat bilan yenga oldi.


U gullar bilan o'zaro «tillashadi». Qushlarning sayrashini, zilol suvlarning shildirashini, quvnoq kulgular jarangini qalbi bilan eshitadi.

Ishonamizki, u o'quvchini hayrat dengiziga g'arq eta oladigan haqiqiy san'at namunalarini yaratadi. O'zbek she'riyati malikalari izidan borib, o'z muxlislariga ega bo'ladi...

Irodaxonning she'rlarini o'qib, chizgan rasmlarini tomosha qilib, hayratlandik, ustozining fikrlari nechog'li haqligiga biz ham amin bo'ldik. Og'ir dard bilan olishayotgan bu matonatli qizga sabr-toqat va albatta dardiga shifo tilaymiz.

Feruza

SOYIBJON qizi.



Iroda ushbu rasmni «Alibobo va qirq qaroqchi» deb nomlabdi.

Istiqlolim - istiqbolim

Bobomning ismlari Nosirjon, yoshlari 73 da. Ular hayotning og'ir va mashaqqatli sinovlarini yengib o'tgan insonlardan biri. Sho'ro hukumati davridagi nohaqliklarni, insonlarning qadrsizlanganliklarini o'z ko'zlari bilan ko'rganlar. O'sha davrdagi yoshlar bizlar uchun

kelsa, shahrimizni tanimay qoladi. *Baland - baland, osmono'par binolar qurildi. Xarobaga aylangan masjid va madrasalarimizni qayta tiklab oldik. Ayniqsa, siz bolajonlarning baxtingiz kuldi. O'qiysizmi, hunarli bo'lasizmi, ixtiyoringiz. Imkoniyatlaringiz juda*

BOBOM BILAN SUHBAT



yaratilayotgan hozirgi shart-sharoitlarni, imkoniyatlarni tushlarida ham ko'rishmagan ekan. Paxta yig'im-terimi davrida qishloq maktablarida o'qishlar to'xtatilib, bolalar dalaga chiqib ketishar, erta tongdan kechgacha paxta terisharkan. Dalalarga dori sepadigan samolyotlar ularning ustidan uchib o'tarkan...

- *Ollohga beadam shukur, mana biz istiqloлга erishdik*, - deyilar bobom ko'zlariga yosh olib. - *Bu kunlarni ko'ra olmasman deb o'ylardim. Mana, mustaqilligimizga ham 11 yil to'lay deb qoldi. Shu oz fursat ichida yurtimizda juda katta o'zgarishlar bo'ldi, shahar-qishloqlarimiz qiyofasi o'zgardi. Poytaxtimizga bundan bir necha yillar avval kelgan odam, hozir*

keng. Shunday ekan, bu faraxbaxsh kunlarning qadriga yeting. Istiqlolimizni ko'z qorachig'idek asrang...

Bobojonimning yurakdan chiqayotgan bu samimiy so'zlari meni ham o'ylantirib qo'ydi. Hayotga, atrofga boshqacha nazar bilan qaraydigan, ro'y berayotgan o'zgarishlarni kuzatadigan, vaqtning qadriga yetadigan bo'lib qoldim. Hademay qadrdon maktabimiz bizni yana o'z bag'riga oladi. Hozirdanoq darsliklarimni o'qib-o'rganib, puxta bilim olishga harakat qilyapman. Mustaqil yurtimizga munosib farzand bo'lib, uning koriga yarasam deyman.

*Dilrabo YUNUSOVA,
Toshkent shahar,
Sobir Rahimov tumanidagi
249 - maktab o'quvchisi.*

Prezident asarlarini o'rganamiz

MILLIY ISTIQLOL G'OYASI: ASOSIY TUSHUNCHA VA TAMOYILLAR

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda.)

To'rtinchi tamoyil. Aholining demografik tarkibini hisobga olgan holda, kuchli ijtimoiy siyosat yuritish. Bozor munosabatlarini joriy etish bilan bir vaqtda, aholini, ayniqsa, kam ta'minlangan oilalarni, bolalar va keksalarni ijtimoiy himoyalash yuzasidan oldindan ta'sirchan choralar ko'rilishi lozim.

Beshinchi tamoyil. Bozor iqtisodiyotiga ob'yektiv iqtisodiy qonunlarning talablarini hisobga olgan holda, tadrijiy asosda, puxta o'ylab, bosqichma-bosqich o'tish.

Ushbu tamoyillar O'zbekistonning o'z istiqlo va taraqqiyot yo'lining asosini, o'tish davri dasturining negizini tashkil etadi. Ularning amalga oshirilishi mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni, eng muhimi, bozor munosabatlarini izchil joriy etishni ta'minlamoqda.

Taraqqiyotning o'zbek modeli xalqimizning milliy davlatchilik an'analari, qadriyatlari va mentalitetiga tayangani, ayni vaqtda, jamiyatni isloh etish borasidagi dunyo tajribasining ilg'or yutuqlariga asoslangani tufayli xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilmoqda.

3. O'zbekistonning jahondagi o'rni va nufuzi

O'zbekiston tarixan Buyuk ipak yo'li kabi qadimiy savdo yo'llari tutashgan, qizg'in tashqi aloqalar va turli madaniyatlarning bir-birini o'zaro boyitish jarayoni kechgan hudud — O'rta Osiyoning markazida joylashgan. Ana shu qulay jug'rofiy o'rin — uning bugungi kunda ham uzoq-yaqin mamlakatlarni o'zaro bog'lab turuvchi ko'pri bo'lib kelayotgani xalqaro munosabatlarni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yurtimizga nisbatan aytilgan «Sharq darvozasi» degan ta'rif bu haqiqatning yorqin tasdig'idir.

(Davomi bor.)



DO'ST BILAN OBOD UYING

Sevimli shoirimiz Erkin Vohidov qalamiga mansub ushbu hikmatli misralarning nechog'li to'g'riligiga yaqinda O'zbekiston Milliy Universitetida bo'lib o'tgan tadbirida ishtirok etib, yana bir bor amin bo'ldim. Yurtimizga til o'rganish maqsadida kelgan Koreya Respublikasining Yongam Universiteti talabalarining Toshkentdagi 243 - maktab o'quvchilari bilan do'stona uchrashuvi bo'lib o'tdi. Koreyalik talabalar Universitet professor va o'qituvchilaridan o'zbek tilidan saboq olish bilan birga toshkentlik bolalarga kuy va qo'shiqlar aytib berishdi, ingliz tilini o'rgatishga harakat qilishdi. Aziza Vohidova, Sayyora Karimova, Aziz Oripov, Iskandar Matlab, Bobur Teshaboyev singari bilimga chanqoq o'g'il-qizlarga ingliz tilida gaplashishning oson yo'lini o'rgatdilar. Ikki xalq bolalari shu qadar qadrdonlashib ketishdiki, bir-birlariga o'z tillarida nom ham qo'yib olishdi. Mu Chong ismli bir koreys qizini xuddi o'z opasidek yaxshi ko'rib qolgan o'zbek bolalari unga «Charos» deb ism qo'yishdi. Saboqlar va uchrashuvlar nihoyasida koreyalik talabalar o'zbek do'stlariga ko'krak nishonlari, o'yinchoqlar, mayka va futbolkalar taqdim etdilar. O'z navbatida toshkentlik o'quvchilar ham ularga do'ppi, ko'ylak, to'n, belbog' singari esdalik sovg'alari topshirdilar. Bu uchrashuv ikki xalq farzandlari qalbida bir umr unutilmas iz qoldirdi.

Zulfizar SODIQOVA,
Toshkentdagi
243 - maktabning
9 - «A» sinf o'quvchisi.

ILK SHE'RIM

«Tong yulduzi»da bosilgan kuni oilamizda haqiqiy bayram bo'ldi. Dadam, oyim, ammalarim samimiy qutlashdi. Katta ammam, bundanda yaxshiroq she'rlar, yozgin, deb Usmon Azim, Orif Odilxonov, Mirpo'lat Mirzo, To'lan Nizom va Shavkat Rahmonlarning she'riy kitoblarini sovg'a qildilar. Kitob men uchun sovg'alarning eng zo'ri-da! Ayni ta'til kunlarida ularni mazza qilib o'qiyapman.

Robiya ORTIQOVA,
Akmal Ikromov tumanidagi
193 - maktabning
7 - «V» sinf o'quvchisi.

TO'GARAK A'ZOSIMAN

Ko'plab tengdoshlarim qatori men ham yozgi ta'tilni mazmunli



o'tkazyapman.

Adabiyotga qiziqaman. Shuning uchun ham tumanimizdagi «Paxtakor ovozi» gazetasida tashkil etilgan «Umid g'unchalari» to'garagiga a'zo bo'ldim.

To'garakda biz o'quvchilarning mashqlari muhokama qilinadi. Gazeta xodimlari bizga kerakli maslahatlarini beradilar. Ma'qullari esa gazetada e'lon qilinadi.

Mening ham bir qator maqola va she'rlarim Respublika va tuman gazetalarda chop etildi. Bundan juda xursand bo'ldim. Shu bilan birga yanada o'qib, izlanishim kerakligini ham his qildim.


Jasurbek UMRZOQOV,
Samarqand viloyati,
Narpay tumani,
Oqtosh shahridagi
30- litsey maktabining
8- sinf o'quvchisi.

XATLAR TEGIRMONI



SO'LIM GO'SHAM - MIROQI

Azim Kesh shahrida bir shaharcha bor. Uning uch tomonidan asrlarga tatigulik purviqor Hisor tizmalari savlat to'kib yotibdi. Ona vatanim O'zbekistonning kokilini ikki daryo yuvganidek, men uchun eng aziz va muqaddas bo'lgan ona shahrim kokilini ham ikki daryo - Oq daryo va Qora daryolar yuvib turadi. Bu yerda yurak torlarini chertuvchi sayroqi qushlarning ajib



navosi, havosi ming dardga shifo, dilni poklantiruvchi, go'zalligi cheksiz, xushmanzara tabiat mavjud. Qalbni yashnatadigan, dam olish va ilm-ma'rifatga kon maskanlari bisyor so'lim go'sham - Miroqiga marhabo, aziz do'stlar!

Dilnavoz BERDIYEVA,
Qashqadaryo viloyati,
Shaxrisabz shahri,
Miroqi shaharchasidagi
2-litsey-internatining
9-sinf o'quvchisi.

Mana, hademay ta'til kunlarimiz ham anqib turgan yo'laklar, sinf xonalari biram qo'yadigan kichkintoylar bilan tugab, qadrdon maktabimiz bag'riga shinam. Kompyuter xonasiga yangi mashg'ulotlarni boshlab yuborishibdi. qaytamiz. O'sha kunni qanchalik i n t i z o r Hammangiz yaxshi taniydigan «Orom» dastamiz Italiyaga kutayotganimni, o'z uyimizdek bo'lib kompyuterlar sotib olishibdi. jo'nab ketibdi. Darvoqe, dastamiz qolgan «Orom»imizni qanchalik Ustozlarimiz birinchi sinfga qadam qatnashchilarining chiroyli liboslari sog'inganimni bilsangiz edi.

Tunov kuni maktabga chiqdim. Huvullab yotgandir desam, qayoqda, ta'til nimaligini bilmaydigan, tinib-tinchimas direktorimiz Gulnora opa Qo'chqorova va barcha ustozlarimiz o'sha yerda ekanlar. Maktabimizni ta'mirlash ishlari tugatilibdi. Yangigina bo'yoq hidi



Gulnora opaning chizgan chizmalari asosida tikiladi. Qo'shiqlarining kuy va musiqlarini ham o'zlari yozib beradilar. Maktabimizda yagona forma joriy qilingan bo'lib, biz uni faxr va iftixor bilan kiyib yuramiz. Men ham formamni sarishta qilib ilib qo'yganman. Har gal unga ko'zim tushsa, yuragim shodlikdan entikib ketadi.

Shahzoda RIZAYEVA,
Toshkentdagi «Orom» nomli
bog'cha maktabning
4 - «J» sinf o'quvchisi.

BESHGACHA SANAY OLAMAN XOLOS

Ingliz tiliga qiziqmagan o'quvchi bo'lmas kerak. Ayniqsa, hozirgi shiddatli rivojlanayotgan zamonda. Men Yoshlar telekanalida namoyish qilinadigan «Davr news»ni tomosha qilib, «qaniydi barcha so'zlarni tushunsam» deb o'tiraman. Sababi, maktabimizda ingliz tili fani o'qituvchisi yo'q. O'zimcha mustaqil ravishda ingliz tilida beshgacha sanashni, salomlashishni o'rganib olganman. Qolganini ham

o'rgatadigan muallimni topib olsam edi. Yo'q, yaxshisi



maktabimizga shunday ustoz kelsinu men kabi qiziquvchilar ham

ingliz tilidan bahramand bo'lsinlar. Jahon miqyosiga chiqishimizga zinapoya qo'yilsin.

Matluba MARDONOVA,
Surxondaryo viloyati, Yangiariq tumanidagi
45-o'rta maktabning
6- «V» sinf o'quvchisi.

OZODALIKKA QACHON O'RGANAMIZ?

Har bir o'quvchi ta'tilni o'zi xohlaganidek mazza qilib o'tkazayotgan bo'lsa kerak. Men ham ta'tilni juda maroqli o'tkazmoqdaman. Kuni kecha oila a'zolarimiz bilan Alisher Navoiy nomli san'at saroyiga borib «Charxpalak» filmining uchinchi faslini tomosha qilib keldik. Joylashib o'tirganimizdan so'ng sahnaga «Nishona» teatri aktyorlari o'z hangomalari bilan chiqdilar. Undan so'ng Kozim Qayumov «Charxpalak» qo'shig'ini kuylab, hammani xushnud qildi. So'ng film boshlandi. Unda og'ir kunlarni boshidan o'tkazib kelgan oilaning hayoti o'z iziga tushishi aktyorlar tomonidan katta mahorat bilan ko'rsatib berildi.

Lekin ko'p marotaba tushgan tomoshabinlar har bir gapni oldindan aytib, qaytarib, atrofdagilarga halaqit berish bilan ovora edilar. Bir kishi to'satdan «Ovozini pasaytir» deb baqirib, hammaning e'tiborini o'ziga tortdi.

Film ham tugadi. Chiroqlar yoqilganda zalning iflosligiga qarab bo'lmasdi. Muzqaymoq qog'ozlariyu tamaki qoldiqlari o'rindiqlar tagida yotganini ko'rib juda xafa bo'ldim. Ko'chada ham, yurgan yo'limizda ham axlat tashlaymiz. Endi bu odatni san'at saroylarida ham qo'llayapmizmi? Unda qachon madaniyatga o'rganamiz?

Nazokat BOBOQULOVA,
Poytaxtimizdagi 142 - maktabning
11 - sinf o'quvchisi.



Sog' yurak - tog' yurak

Futbol o'ynashni, miriqib to'p tepishni yoqtirmaydigan o'g'il bolalar bo'lmasa kerak. Nafaqat bolalar, balki ayrim kattalar ham futbolni zavq bilan o'ynaydilar.

Maydonda to'p surishning qonun-qoidalari oddiy tarzda tuzilgan. Bu o'yin bilan har bir inson bemalol shug'ullana olishi mumkin. Balki shu sababdan ham futbol butun dunyoda mashhur bo'lib ketgandir. Biroq, bu sport turini o'ziga kasb qilib olish hammaga ham nasib etavermaydi.

Har bir xalq futbolni o'ziniki deb hisoblaydi. Shuning uchun ham uni xalq o'yini, millionlar o'yini deymiz- da. Ana shu millionlar o'yini ayni kunlarda har bir mahallada, maktabda rivoj topayapti. Respublika futbol federatsiyasi ko'p yaxshi ishlarni boshlab yubordi. Mahalla bolalari orasida

qator musobaqalar Dneprodzerjinsk tumanida uyushtirilayapti. Ulardan eng qarshi yo'nalishdagi yaxshi o'yinchilar tanlab samolyot bilan to'qnashib

MILLIONLAR O'YINI

olinib, alohida mashg'ulotlar o'tishyapti.

Men ham futbolning ashaddiy muxlisiman. Shuning uchun ham futbol musobaqalarida ishtirok etaman.

Ayni kunlarda «Paxtakor»

stadioni muxlislar bilan yanada gavjumlashdi. Ular o'zlarining sobiq «Paxtakor» chilarini yodga olishmoqda.

Bundan bir necha yil avval, 1979 yilning 11 avgust kuni Toshkent- Donetsk- Minsk marshruti bo'ylab uchayotgan havo layneri



ketishi natijasida ikki samolyot halokatga uchrangani biz futbol ishqibozlariga yaxshi ma'lum. Ular orasida «Paxtakor» futbol jamoasining o'n yetti a'zosi

hamda murabbiylar bor edi.

Aytishlaricha, taniqli murabbiy Idgay Tazetdinovning orzulari yuksak bo'lib, u «Paxtakor»ni eng kuchli jamoalardan biri darajasiga ko'tarmoqchi ekan.

- Sport ustasi Olim Ashirov, yoshlar o'rtasida Yevropa

chempioni Mixail An hali maydonda to'p surib tolmaydiganlardan edilar.

Sirojiddin Bozorov esa samolyotga chiqishidan oldin qattiq hayajonda bo'lganligi tabiiy. Chunki u birinchi marta asosiy jamoa tarkibida maydonga tushmoqchi edi. Afsus, uning orzulari muallaq qoldi, deb yozadi o'z esdaliklarida taniqli sport sharhlovchisi, jurnalist Axbor ota Imomxo'jayev.

Ishonchim komilki, kelajakda biz ularning o'mini bosamiz. Sergey Pokatilovdek chaqqon darvozabonlar, Olim Ashirov, Mixail Anlardek kuchli o'yinchilar bo'lib yetishamiz. Katta- katta musobaqalarda to'p surib, O'zbekiston nomini dunyoga tanitamiz.

Iskandar ODILOV,

Toshkent shahar,

Hamza tumanidagi

206- maktab o'quvchisi.

Buvijonlarimizning hikoya qilishlaricha, ular bo'sh vaqlarini kashta tikish, gilam to'qish va shu kabi yumushlarni bajarish bilan o'tkazgan ekanlar.

Xo'sh, hozirgi qizlarimiz-chi, ular bo'sh vaqlarini qanday o'tkazadilar? Ayniqsa, hozirgi yozgi ta'til kunlarida nimalar bilan mashg'ullar?

Qizlarimizning qay birini suhbatga tortmang, biron bir hunarning boshini tutish niyatida ekanliklarini aytishlari tayin. Kimdir tikuvchilikni, kimdir pazandalikni, yana kimdir hamshiralikni o'rganish ishtiyoqida. Toshkent shahrining Chilonzor tumanidagi «MUSTANG» nomli restoran qoshida ochilgan «FASON» o'quv markaziga qatnayotgan qizlar esa har jihatdan uquvli bo'lish niyatidalar. Ular

tajribali mutaxassislardan tikuvchilik, to'quvchilik, sartaroshlik, pazandachilik, «Elita» usulida parda tikish, ingliz tilidan saboq o'lyaptilar.

Men qunt bilan saboq olayotgan qizlardan ayrimlarini savolga tutganimda, ular o'qishdan mamnun ekanliklarini,

olayotgan bilimlari oilalarida, uy yumushlarida juda qo'l kelayotganini aytishdi. «Men sartaroshlik kasbini egallamoqchiman. Kelganimga bir yarim

oy bo'ldi, anchagina qo'lim kelishib qoldi.

Uydagilarimiz ham, yozgi ta'tilimni samarali o'tkazayotganimdan o'zim ham xursandman» -deydi 9-sinf o'quvchisi Dilfuza Hakimova.

Qizlarga sartaroshlik kasbidan saboq berayotgan Nigora opa Siddiqova shogirdlari haqida shunday deydi:

-Qizlarimiz qiziqishlari, intilishlari bois anchagina bilimlarga ega bo'lib qolishdi. Ular sochlarni chiroyli, zamonaviy qilib turmaklashni o'rganish bilan birga, o'zlari ham yangi-yangi g'oyalar, takliflar bilan chiqishyapti. Guruhimda shu oyning o'zida bilim olgan 16 nafar qiz kursni yakunlash arafasida turibdilar. O'ylaymanki, o'rgangan hunarlari kelajak hayotlarida albatta asqotadi... Mazkur o'quv markazida pazandachilik ham a'lo darajada o'rgatilar ekan. O'smir qizlar bu yerda o'n besh turdagi salatlar, o'n uch xildan ortiq tort va turli xil mazali pishiriqlar tayyorlashning hadisini olishyapti.

Aziz dugonajonlar, yozgi ta'tilni mazmunli, foydali va maroqli o'tkazishni xohlasangiz, siz ham shunday o'quv markazlarida saboq olib, hunarli bo'ling. Qiz bolaga qirq hunar ham oz, deb bejiz aytilmagan-ku, axir!

Shahlo MUTALOVA.

BIZGA QIRQ HUNAR HAM OZ



Qiz bolaning fazilatlari haqida

Qiz bola atirgul g'unchasi kabi nozik. U kun sayin ochilib-yashnab, gulday iforli bo'lib boradi. Ko'nglining go'zalligi tashqi chiroyiga monand bo'lgan qizlarga

keyin kirib borsam uyat, axir dugonasiman, barvaqtroq borib qarashay» dediyu shoshib kiyina boshladi. Lekin soch turmagidan ko'ngli hech to'lmadi. «Yonimizdagi

bir rivoyat ham bor. Qadimda bir kishining go'zal qizi bo'lib, u balog'atga yetibdi. Sovchilar kun sayin ko'payaveribdi. Ayniqsa, ularning uchasi otaga juda ma'qul

FE'LINGIZDAN TOPASIZ...


esa hammaning havasi keladi. Shirinsuhanlik qiz bolaga husnu malohat bag'ishlaydi. Agar buning aksi bo'lsa-chi? Hunuk so'zlarni tilga olgan qizga bir nazar tashlang-a, u sovuq va ko'rksiz...

Bu ham mayliya, birovni jerkigan, kimningdir dilini og'ritgan qiz bola ko'p o'tmay qilmishining «samarasi»ni ko'radi, ya'ni uning ham ko'ngliga kimdir ozor yetkazadi!

Bir kuni shunday voqea bo'ldi:

Ertalab non do'koni odamlar bilan liq to'la edi. Nazokat ham non olish uchun navbatda turardi. Shunda bir keksaroq ayol «Qizim ishga shoshayotgandim, menga ham bitta non qo'shib oling» deya pul uzatdi. Nazokat esa haligi ayolga tik qarab: «Bu yerda hamma shoshib turibdi, navbatingiz yetishini poylasangiz-chi!» deb teskari o'girilib oldi. Ayol indamay bosh chayqadiyu, soatiga qaray-qaray, odamlarning eng oxiriga borib turdi...

Qay kun kelib Nazokat eng yaqin dugonasining tug'ilgan kuniga bormoqchi bo'ldi. Kiyimlarini dazmollab, sovg'a- salomlarini tayyorlaguncha birpasda kech bo'ldi. «Mehmonlar yig'ilganidan



sartaroshxonaga birrov kirib o'tarman» deb o'yladi. Sartaroshxonada ayollar ko'p edi, vaqt esa tig'iz. «Men juda shoshib turuvdim, sochimni tezgina turmaklab yuboring» dediyu sartarosh ayolning chehrasiga ko'zi tushib, bir zum kalovlanib qoldi. Bu o'sha kuni Nazokatdan qo'pol so'z eshitgan sartarosh ayol edi! «O'tiring, qizim!» dedi ayol o'zini sezmaganga olib. Nazokat esa ko'ngli buzilib, ko'ziga yosh to'ldi. Shartta sartaroshxonadan chiqib, ko'chaga otildi...

Fe'l- atvorning o'zgarib turishiga oid

bo'libdi, «Essizgina, qizim bitta, manavi, uch kishini esa sira xafa qilgim kelmayapti. Qaniydi, qizim uchta bo'lganida, deya ming bir o'y - xayol bilan tong otiribdi u. Ertalab qarasaki, uchta go'zal qiz hovlida yumush qilib yurganmish! Cholning bir iti va eshagi bor ekan, ular egasining hadeb tashvish tortavergani bois bu ikkisiyam qizlarga aylanib qolgan ekanda. Xullas, chol haligi uchta sovchiga uch qizini kelin qilib uzatibdi. Oradan bir necha oylar o'tib, qizlarinikiga mehmonga boribdi. Birinchi xonadon egasi: «Qizingiz juda yaxshiyu, lekin achchiq gap bilan bizni qopadi-da». «Bu qizga aylangan itim!» deb o'ylabdi chol. Ikkinchi xonadon boshlig'i: «Qizingiz gohida biz bilan baqirishib, haqorat so'zlarni aytadi!» debdi. «Bu esa qizga aylangan eshagim!» deya o'ylabdi chol. Uchinchi xonadonda uni izzat- ikrom bilan kutib olishib, «Qizingizga ajoyib tarbiya beribsiz, rahmat deyishibdi». «Ha, bu o'zimning qizim!» deb xursand bo'libdi ota.

Bu hikoya zamirida qiz bolaning xush odob va qalbi go'zal bo'lishiga ishoralar bor. Qiz bolaning husni uning odobida, degan gapni aslo unutmasak, dugonajonlar.

Sayyora MEYLIQO'ZIYEVA,
ToshPI qoshidagi litseyning
3-kurs talabasi.

QOVOQVOYNING

(2 pardali, 7 ko'rinishli ertak. Yangi varianti.)

(Davomi. Boshi o'tgan sonda.)

Qovoqvoy:

Ey, oyijon, keldi gadoy.

Sehrgar:

(O'vozini o'zgartirib.)

Shoshma, ey, Qovoqvoy,

Gadoymasman, sehrgarman, Har bir siring shart aytarman.

Ko'p shoshilma ey, bolakay,

Gapir, qani ishing qalay?

Qayga borsam,

Har bir odam

Doim mendan so'rar yordam.

Vaqtim tig'iz,

Ketayin tez.

(Keta boshlaydi.)

Qovoqvoy:

(O'zicha.)

Aytsammikan, bir arzim bor,

Kuzga qolgan bir qarzim bor.

Sehrgar:

Qandayin dars,

Qanaqa qarz?

Qovoqvoy:

O'rganmasam karra jadval,

Ko'p ishlarim bo'lar ishkali.

Sehrgar:

Bo'ldi-bo'ldi, menga ayon,

Senga yordam qilay, inon.

Ammo shunday shartim bor,

Berib turgin sen e'tibor.

Eng birinchi shartim senga...

Avvalo so'z ber-chi menga.

Ko'pchilikka foydali,

Ish tutgin qoidali.

Ikkinchisi kuch yiqqin

Tarvuz, Qovunni yiqqin.

Qovoqvoy:

(O'zicha chetga qarab.)

Bilar ekan-a qoyil,

Ishonayin astoydil.

Fursati kelgandayin,

Foydalanib olayin.

(Cholga.)

Qayga desangiz

boray,

Shartingizni

bajaray.

Sehrgar:

Ikkinchi shartim shundoq:

Har kuni tongotar chog'

Tomning ustida turgin,

Ne desam qilib yurgin.

Buning mazmuni shundoq:

Turasan tongotar choq,

Zaryadka qilishing shart,

Bo'lasan sog'lom va mard.

Qovoqvoy:

Yettida turish qiyin,

Tursam-chi o'ndan keyin?

Men bir oz uyquchiman,

Yetishmas menda chidam.

Sehrgar:

Agar ko'nmasang shartga,

Jo'nab qolaman shartta.

(Keta boshlaydi.)

Qovoqvoy:

E, bobo, axir shoshmang,

Qilmang unaqa tarang.

Ozginá o'ylab olay,

Balki bo'lar noqulay.

(Sehrgar bekinadi.

Qovoqvoy topolmay yig'laydi. Yig'i ovozi**eshitib Qovoqvoyning oyisi yugurib****chiqadi.****Qovoqvoy oyisiga qaramay, tom****ustiga chiqadi-da, atrofga qaraydi.)****Qovoq xola:**

Nima qildi

Qovog'im,

Yana seni urdi kim?

Qovoqvoy:

Nariroq turing oyijon,

Ishim bo'lmasin yomon!

Qovoq xola:

Ketsam ketay Qovog'im,

Yuvay qozon-tovog'im.

(Ketadi.)

Qovoqvoy:

(O'zicha.)

Bo'lmaganida g'oyib,

Ish bo'lardi ajoyib.

Eh, o'zim qovoqkalla,

O'tib ketdi soz palla.

(Qovoqvoy tomdan

tushadi. Sehrgarni

izlaydi. Ko'sak qurti

bilan Chigirtka paydo bo'ladi.)

Ko'sak qurti:

Uni bizlar

yubordik,

O'rgatsin deb

yolbordik.

Qovoqvoy:

Ketib qoldi-ku o'zi,

Qiyin ekan shart, so'zi.

Chigirtka:

Nima desa ko'naver,

Qaytib kelar, qo'yaver.

Juda ham egma bo'yin,

O'zingga bo'lar qiyin.

Ko'sak qurti:

Qaltiraysan namuncha,

Nima bo'ldi tuguncha?

Qovoqvoy:

Qayerga dir

ko'muvdim,

Belgilar ham

qo'yuvdim,

Topolmayapman

sira,

Degandim ko'zim

xira...

(Chigirtka va

Ko'sak qurti

Qovoqvoyga do'q

qilib,

urmoqchi

bo'lishganda

Sehrgar

bilintirmay

kela boshlaydi. Ular qochishadi. Qovoqvoy xomush.)

Qovoqvoy:

(O'zicha.)

Nega ko'na qolmadim,

Yurishardi omadim.

O'zimga o'zim qildim,

Kamchiligimni bildim.

Eh, ko'nsam bo'lar edi.

Sehrgar:

(Keladi.)

Yordam beraman endi.

Qovoqvoy:

(Sevinib.)

Ne desangiz yuraman,

Xo'p, yettida turaman.

Sehrgar:

To'rtinchi shartim, bola,

Har ishni qilma chala.

Nima o'rgatsam uni —

Yod olasan shu kuni.

Yana bir shartim, o'g'lon,

Sira gapirma yolg'on.

Barcha shartimga

ko'nsang,

Bajarishga mard bo'lsang,

Karra jadvalni, chin gap,

O'rgataman yaxshilab.

Qovoqvoy:

(Cho'chib boshini ushlaydi, nima deyarini bilmaydi. O'ylab qoladi).

Ey, bobojon, siz agar

Bo'lsangiz chin Sehrgar.

O'rtoqlarim har birin

Aytib bering-chi sirin.

Sehrgar:

Eshitib ol, so'zimni,

Yumib turib ko'zimni

Dilingdaging aytaman,

Shunday kuchga egaman.

Chanoqvoy yordam bersa,

Qo'pol bo'lding sen esa.

Qalay, topdimmi, Qovoq,

Buyog'i bo'ldi qandoq?

Shunaqa nuqsoning bor,

Bilib oldim ko'zingdan, —

Kichkinadan o'zingdan —

O'rganishga qilding or.

Gapim to'g'rimi, Qovoq?

Qovoqvoy:

So'zingiz to'g'ri, biroq —

Topdingiz qanday qilib?

Sehrgar:

Berma bunaqa savol,

SARGUZASHTI

Po'lat MO'MIN

Buzilar fikr-xayol...
Shartim bajarilmasa,
Ishing bo'lar bemaza.
Kuchin yo'qotar sehim,
Yomon ishlaydi zehnim.

Qovoqvoy:

Qanaqa mashq bajaray,
O'rgating-da, har qalay.
(U to'nka ustiga chiqadi.)

Sehrgar:

Xo'p, bo'lmasa, tayyor bo'l,
Mana bunday ko'tar qo'l.
Topshiriqqa quloq sol,
Avval chuqur nafas ol.
(Sehrgar shu tarzda har xil
harakatlarni o'rgatadi.
Qovoqvoy charchaydi,
holdan ketib to'nka ustidan
zo'rg'a yerga tushadi.)

Qovoqvoy:

Karra jadvalni bir-bir
O'rgata qoling hozir.

Sehrgar:

O'tir, mayli, Qovoqvoy,
Shu yer bo'lsin bizning joy.
Ikki karra uch — olti,
Qovoq sinfda qoldi.

Qovoqvoy:

Ey, bobojon hoy-hoy-hoy,
Shunday derdi Chanoqvoy.

Sehrgar:

Chanoqvoy shunday derdi,
U menga ma'lum erdi.
Gapga yaxshi quloq sol,
Tezda uni yodlab ol.

Terak shoxi bo'lar mo'rt,
Ikki karra ikki to'rt.

Qovoqvoy:*(Qaytaradi.)*

Terak shoxi bo'lar mo'rt,
Ikki joyda ikki to'rt.

Sehrgar:

Bekor ishga yugurma,
To'rt karra besh — yigirma.
Do'stlar aytgan gapga ko'n,
gapga ko'n,
Beshta ikki bo'lar o'n, bo'lar
o'n.

(Qovoqvoy bilan Sehrgar
yuqoridagi shu to'rtlikni
qo'shiq qilib takrorlashadi,
bolalarga maqtanishadi,
bolalar ham zaldan birga
aytishadi.)

Bugundan qoldirmay,
Yodlab olgin har qalay.

Tayyor bo'lsin ertaga,
Men so'rayman jo'rttaga.

Qovoqvoy:

Juda ko'p-ku bobojon,
Yod olish emas oson.

Sehrgar:

Qovoq ko'ngling bo'lsin
to'q,

Qiynalmasang rohat yo'q.
(Sekin Qovoqvoyning
yoniga kelib.)

Chigirtka, Ko'sak qurti,
Senga nega do'q urdi?

Qovoqvoy:

Aytsam ketadi
boshim,

Qandayin
yeyman oshim?

Sehrgar:

A g a r d a
saqlasang sir,
Bilvolaman bari
bir.

(Qovoqvoy
sekin Sehrgarning
qulog'iga bir nima deb
shivirlaydi.)

Sehrgar:

Faqat sen yo'l boshlaysan,
Ishni o'zim boplayman.
Senga bo'lmas hech nima,
Ey, Qovoqvoy cho'chima.
Ko'nglingni qilaver to'q.
Qiynalmasang rohat yo'q!
(G'oyib bo'ladi.)

Qovoqvoy:

(Sahnaning oldirog'iga
kelib.)

Qiynalmasang rohat yo'q!
Shoirligim yaxshimi,
Yoki sizlar qarshimi.
Semiraman, ozaman,
Bir zumda she'r yozaman.
Shoirlikka berilib,
Yurajakman kerilib.

(Boshini ushlab, uyoqqa-
buyoqqa yuradi. Nimadir
o'ylaganday.)

Qofiya-qofiya o'ynaysizmi,
O'zimday tez o'ylaysizmi.
Mening otim-chi, Qovoq,
Unga qofiya ahmoq.
Kulavermang bekorga,
O'xshab ba'zi beorga.

(Parda)

IKKINCHI PARDA TO'RTINCHI KO'RINISH

(Yoz oyi. G'o'za gullagan.
Yelkalariga dori purkagich
orqalagan Tarvuz, Qovunjon,
Handalak, G'ujumoylar
kirishadi. Qo'llarida
bankacha, kapalak
tutadigan suzg'ich. Ular
g'o'zaga tushgan Ko'sak
qurti, O'rgimchakkana,

K a p a l a k l a r n i
u s h l a s h g a
k e l i s h g a n .
Chanoqvoy ularga
boshliq bo'lib
o'rgatmoqda.
Q o ' s h i q n i
boshlaydi.)

Ey o'rgimchak-
kanalar,

K o ' r i n m a s
pakanalar,

Ham xolangiz,
ammangiz

Asirman deb hammangiz
Ko'taringlar tezda qo'l,
Hech bermaymiz sizga yo'li!

G'ujumoy:*(Davom ettiradi.)*

Yalmog'iz ko'sak qurtlar,
Yaramaslar — beburdlar,
Ey, ochofat chigirtka,
Asirman deb chiq chetga.
Hammangizni ushlayman,
J a g ' - j a g ' i n g g a
mushtlayman.

Tarvuz:

Seni topmay qo'ymayman.
Ko'zlaringni o'ygayman.
Yuzingga qora surkayman,
Gazli dori purkayman.
Rosa boplab urgayman,
Purkayman! Purkayman - o-
o-o!

G'ujumoy:

Ovozing ekan baland.

Chanoqvoy:

Buni deydilar talant.

Qovunjon:

To'g'ri aytadi Chanoq,
Artistlikka talant zo'r.

Tarvuz:

Artist bo'lardim mashhur,



Yo'l bermas qorin
qurg'ur.

(Q o v o q v o)
ko'rinadi.)

Qovunjon:

Nima bo'lgan
Qovoqqa?

Boqib qopti osmonga.
Ishi o'xshar yomonga.

Chanoqvoy:

Kel, og'ayni buyoqqa.

Tarvuz:

U nimani izlaydi?

Qovunjon:

Yengil ishni ko'zlaydi.

Tarvuz:

Osh bo'lsa, ish
bo'lmasa,

Yoz bo'lsa, qish
bo'lmasa.

G'ujumoy:

Xafa bo'lmasin
Qovoq,

Uni ranjitma bundoq.

Tarvuz:

Doim yuradi bekor,
Ham ishyoqmas, ham
beor.

Ishda pishsin biz kabi,
Shunday do'stlar
talabi.

Qovunjon:

Kelishlariga qarang,
Qadamin bosar arang.
(Qovoqvoy asta-
sekin keladi.)

Tarvuz:

Qovoq, Qovoq xom
Qovoq,

O'qishda, ishda
qoloq.

Qovoqvoy:

O'zing-chi, rosa
quvsan,

Iching to'la liq
suvsan.

(Davomi bor.)

ABADIYAT ARDOQLAGAN ALLOMALAR

Ushbu ruknni Rustam OBID olib boradi

Iogann Kepler haqida nainki mo'jizina maqola, balki she'r, yirik roman va hatto fojiali sahna asari yozsa arziydi. Zotan, u bir paytning o'zida buyuk astronom, xurofotga botgan protestant,

Bilimim shu yerga yetib keldikim,
Bilimsizligimni endi tushundim.
Abu Shukur Balxiy

«jodugar»ning o'g'li, qashshoqdan chiqqan «mag'rur», yulduzli samoning jasur darg'asi, sayyoralar harakati qonunlarini topa olgan daho edi. Uning butun umri — ilk marta «inga»lashidan tortib, to so'nggi nafasigacha — olim bo'lish uchun qarshilik ko'rsatgandek tuyuladi. Yer yuzida yashab o'tib nimagaki qo'l urmasin, aqalli birontasida ham taqdir uni qo'llab-quvvatlaganini sezmedi.

NURSIZ YOSHLIK

Chala tug'ilgan chaqaloq o'sha kunning o'zidayoq o'lishi kerak edi, ammo qandaydir mo'jiza bilan omon qoldi. 6 yoshida og'ir kasallikka uchrab alahsirab yotganida, ota-onasi undan umid uzib tashlab ketganida, bola yana hayotga qaytdi. 13 yoshida uchinchi marta o'limga ro'para kelib, yana omon qoldi. Yarimjon bo'lib ulg'aygan, ko'zlari xira ko'radigan bu odam zimmasiga yuklangan vazifani ado qilmay turib, bu dunyoni tark etishni istamasdi.

Ota-onasi boladagi tabiiy tiyrak aql-idrokni zo'rlab sug'urib olishgandek edi go'yo. O'zini aslzoda sanagan qo'pol fe'l-atvorli omi otasi ko'ngilli askar sifatida xizmatga kirib, turk qilichi ostida bo'yni chopilishidan avval 7 yoshli o'g'lini maktabdan chiqarib olib, iflos qovoqxonaga xizmatkorlikka berishga ulgurgan edi. Xolasi jodugar sifatida gulxanda yondirilgan. Qashshoq bolaligi onasining qo'lida o'tgan. O'qish-yozishni bilmagan savodsiz bu

ayolning umri esa peshtaxta ortida, ho'l peshbandda, arzon sharob hidi bilan o'tib ketdi. O'zi mehr ko'rmagan ayol bu suyuksiz, rangpar bolaga qanday mehr bera olardi? Askar va qalayi erituvchi bo'lgan akalari uni so'kishdan bo'lak yana nimaga ham o'rgata olishardi? Bolalik chog'laridagi yakkayu yagona nur — opasi Margarita edi, ammo ko'p

so'rashga majbur bo'ldi. Iogann xotinini asrab-avaylar, uning tinchligini ko'zlar, ammo bu jizzaki ayol janjal ko'tarib, tutqanog'i boshlanganda oila naq do'zaxning o'ziga aylanib ketardi.

Buyuk kishilar olmos yanglig' noyob va shu qadar serjilodir.
Sharq naqli

Iogann farzandlarini chin yurakdan sevadi, ammo uchta bolasi vafot etadi, ko'p o'tmay xotini aqldan ozib, olamdan o'tadi. Iogannning ikkinchi turmushini ham baxtli deb bo'lmaydi. Muhtojlik, qashshoqlik uni bir umr, kechayu kunduz ta'qib etadi. «Maosh berishmayapti» deb yozadi u zorlanib. Bir yildan keyin ham o'sha-o'sha shikoyat: «Qashshoqman, tilanchidan hech qanday farqim qolmadi».

SAYYORALAR
SARDORIKULFATLAR
ICHRA IJOD

Keplerning ilmiy asarlari orasida bittasi boshqacha. 1609 yili u «Tush yoki Oy geografiyasi» nomli fantastik hikoya yozadi, bu Yangi

Yevropa adabiyotida fazoga parvoz haqidagi birinchi badiiy asar edi. Bu o'rinda u «tush» shunchaki bir badiiy usul, aslida Kepler o'quvchilarga Oy olami, uning tog'lariyu o'rmonlari, u yerdagi odamlar unga qanday ko'rinishi to'g'risida so'zlab bermoqchi. Badiiylashtirilgan bu ilmiy asar noyoblighi va beqiyosligi sababli ham chop etilishidan oldinoq butun Yevropa bo'ylab qo'lyozma holida tarqalib ketadi. Keplerning dushmanlari esa «Bularning bari uydirma emas, «Tush» asarining qahramoni Dyurakotus Keplerning o'zi, u chindan ham Oyga uchgan. Xudoga yoqmaydigan bu ishda esa unga onasi yordam bergan», deb mish-mish tarqatishadi.

(Davomi bor.)

o'tmay u turmushga chiqdi-yu o'smirning dushmanlari qatoriga endi pochchasi ham qo'shildi.

Iogannning uyi — aysh-ishrat bilan ibodat o'zaro qorishib ketgan, yo'l chekkasidagi mana shu qovoqxonaga edi. Uning yeri — uzluksiz ochlikdan sillasi qurigan tananing so'nggi tomchi kuchlarini ham so'rib oluvchi befayz Shvabiya dalalari bo'ldi. Uning muhabbati — baxtsiz hodisalarning tuganmas zanjiridan, oilasi esa — ter bosgan qo'llarda qayta-qayta sanaladigan bir necha florindan iborat edi, xolos.

Iogann 26 yoshida sevib uylandi, biroq xotinini undan oliynasab ekanligini isbotlashni talab qilib tahqirladi. Sevgidan boshi aylangan va nomusdan shoxi singan yigit Vyurtembergga borib, shajarasiga oid ma'lumotlarni

Aziz bolajonlar, ota-onalaringiz, kattalardan soliqlar haqida eshitgandirsiz. Lekin bu so'zning asl ma'nosi nimaligi, ular qanday maqsadlarni ko'zlab yig'ilishi haqida hammangiz ham to'liq ma'lumotga ega bo'lmasangiz kerak. Vaholanki, soliqlar haqidagi bilimlaringizni hozirdanoq boyitib borsangiz, bu saboqlar sizga kelgusida albatta asqotadi.

Shu maqsadda «Soliq haqida nimalarni bilasiz?» deb nomlangan rukn tashkil qildik. Soliq qo'mitasi xodimi Toshpo'lat Mirzayev hamda u kishining nabirasi Sharofiddin Rasulovlar boshqaradigan ushbu rukndagi maqolclarni o'qib borsangiz, foydadan holi bo'lmaydi, deb o'ylaymiz.

Soliqlar azaldan, jamiyat qay tarzda shakllanishidan qat'iy nazar, ma'lum hudud faoliyatini iqtisodiy-ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida majburiy ravishda undiriladigan to'lov bo'lib xazinani mablag' bilan ta'minlovchi manbaa vazifasini bajarib kelgan. Ayrim tarixiy ma'lumotlarga ko'ra Markaziy Osiyoda eramizdan avvalgi birinchi ming yillik davrida dastlabki siyosiy jamoa birlashmalari paydo bo'lishi bilan ehtiyojlari uchun foydalanish maqsadida majburiy to'lovlar joriy qilina boshlagan.

Soliqning dastlabki turlari jon solig'i, ya'ni askarlikka odam berish va yerdan foydalanganlik uchun o'lpon sifatida to'langan ekan. Soliqlar o'z davrida hukmronlik qilgan davlatlar tarkibiga kirgan har xil toifadagi hukmdorlar sulolalariga majburiy ravishda to'langan. Bir hukmdor o'rmini boshqa hukmdor egallaganda majburiy to'lovlarning turlari va hajmlari ham o'zgarib turgan.

Markaziy Osiyoda Iskandar saltanati davrida soliqlardan katta boylik orttirish maqsadida foydalanilgan. Jahongashta Iskandar bosib olgan Markaziy Osiyodagi Axmoniylar davlatini saqlab qolgan va viloyatlarda soliqlar yig'imini tashkil qilish bo'yicha noiblar xizmatidan foydalanishni munosib bilib, maxsus

soliqlar yig'uvchilar belgilangan. Soliqlar hukmdor Iskandarning xazina boshqaruvi mas'ullari bilan tuzilgan shartnomalar asosida belgilangan. Soliq yig'uvchilar mahalliy zodagonlardan tashkil topgan bo'lib, aynan shular tomonidan, shartnomada belgilanganidan ortiqcha to'lovni zo'rlik bilan undirish evaziga katta boylik orttirilgan.

Soliq to'lovchilar

va bo'ysinuvchi sinflarga tabaqalanib ketishiga olib keladi.

Soliqqa tortish munosabatlariga oid Markaziy Osiyoda milodiy davrning 651-yilidan boshlab hukmdorlik qilgan arab istilochilari davrida soliq tizimi nihoyatda murakkablashdi, ularning soni ko'paydi va soliq to'lovchilar ham tabaqalashtirildi. Bu davrda sodir bo'lgan ijtimoiy keskinlikni bartaraf etish maqsadida soliq tizimining dastlabki aholini muhofaza qilish funksiyalari amal qila boshladi. Bu davrda majburiy to'lov shaklida amalga kiritilgan zakot to'lovi moddiy jihatdan ta'minot imkoniyatini yo'qotgan kambag'al oilalar va yo'lovchilar uchun xayri ehson manbai bo'lgan.

Aslida soliq yig'implari hukmdorlar xazinasini pul va moddiy qiymatliklar bilan ta'minlashga qaratilgan. Lekin arablar hukmdorligining keyingi davrlarida xazinadan aholini ijtimoiy muhofaza etish uchun harajatlarni imkon qadar

kamaytirish maqsadida soliqlarning sadaqa turi joriy etildi.

Asosiy soliqlar sanalmish o'lpon va xiroj majburiy xazina to'lovlari vazifasini bajargan.

Arablar hukmronligi davrining o'ziga xos soliqlaridan biri Juzya — jon solig'i bo'lgan. Bu soliqdan musulmonchilikni rivojlantirish maqsadida ham keng qo'llanilgan, ya'ni juzya solig'ini Markaziy Osiyodagi arablar tomonidan bosib olingan yerlarda yashovchi musulmon bo'lmagan erkaklar to'lashga majbur bo'lgan. Bu soliqning joriy etilishi va to'lash tartibi hukmdorlar farmoni bilan va xazina shartnomalari asosida amalga oshirilgan.


Soliqlar qanchalik majburiy bo'lishi bilan bir qatorda ma'lum darajada adolatlilik omillaridan ham foydalanilgan. Masalan, juzya solig'iga tortishda soliq to'lovchilarning o'ziga to'qlik darajasi, ya'ni turmush to'rvasining ta'minlanganligi inobatga olingan.

(Davomi bor.)

Sharofiddin RASULOV,
Toshpo'lat MIRZAYEV.

SOLIQLAR NIMA UCHUN YIG'ILADI?

tomonidan to'lanadigan soliqlar uchun qarz berish va shuni evaziga sudxo'rlik yo'li bilan boylik orttirilgan. Natijada soliq to'lovlari oddiy



xalqni ekspluatatsiya qilish mexanizmining juda qulay daromaddor tarkibiga aylangan. Soliqlar hisobiga sodir bo'lgan qarzдорlik quldorlikni, ya'ni qarz evaziga xizmat qilish, keyinchalik qarzorni yoki uning oila a'zolarini bepul xizmatkorga aylantirish odat tusiga kirib borgan.

Jamiyat qurilishida huquqiy muhofaza qonunlarining yo'qligi aholini hukmron

BIRNIKI MINGGAMI?..

Bozordan qaytayotgandim. Avtobuslar bekatida odamlar gavjum. Har kim har xil xayollar og'ushida. Oradagi jimlikni qizlarning jarangdor kulgulari buzib yubordi. Hammaning nigohi ularga qadaldi. Ularning bu qilmishidan kimlarningdir ensasi qotgani, yana kimlarning g'ashi kelayotgani yuz-ko'zlaridan bilinib turardi.

Keksa bir onaxon ularni tartibga chaqirgan bo'lib:

- Hoy qizlarim, sal sekinroq kulinglar. Ko'rgan ko'z, eshitgan quloqqa yaxshimas, - dedilar.

Qizlar esa bu gapga parvo ham qilmay, kulguni battarroq avjiga chiqarishdi...

Bu orada men kutgan avtobus ham kelib qoldi. Qizlarga tanbeh bergan onaxon bilan yo'limiz bir ekan, ular ham avtobusga chiqdilar. Bekatdagi haligi qizlar avtobusdagi yo'lovchilarning ham e'tiborini tortdi:

- Yoshlarimiz ham xo'-o'p o'zgarib ketishyapti-da, dedi bir ayol qizlarga ishora qilib.

- Nimasini aytasiz, ilgari yoshlarga nasihat qilsak quloqqa olishardi, tanbeh bersak, mulzam bo'lishardi. Hozirgi yoshlarga tekkinu qochgin. Bir gap gapirsang, og'zingizdan olib yoqangizga yopishtirishadi, - dedi bekatdan chiqqan onaxon.

- Ey, bularga gapirganingiz havoga gapirganday gap. Ota-onalari berolmagan tarbiyani siz biz qanday berardik, - deya suhbatga qo'shildi yana bir otaxon.

Ularning gaplarini eshitib, yer yorilmadi-yu men kirib keta qolmadim. Nahotki kattalarimiz yoshlarimiz haqida shunday fikrda bo'lsalar?! Axir yoshlarimiz orasida odobli, iymon-e'tiqodli, intiluvchan o'g'il-qizlarimiz juda ko'p-ku. Yoki, birniki minggami?..

Men bu voqeadan katta saboq oldim. Siz-chi, aziz dugonalarim?

*Nigora HUSNIDDIN qizi,
Toshkent shahri.*

Men oilada yolg'iz qizman. Shuning uchun ham onajonim mening eng yaqin sirdoshim bo'ladilar. Ularga o'zimni o'ylantirayotgan fikrlarimni to'kib solaman. Yechimini topolmayotgan muammolarimni aytib,

DO'STIMNING HAM DO'STI BOR EKAN...

maslahatlar olaman.

Avvallari dilimdagi gaplarimni dugonalarim bilan o'rtoqlashardim. «Hech kimga aytma» degan gaplarim ko'p marta o'zimga qaytib kelgan. «Do'stim deb barcha siringni ochaverma, do'stingning ham do'sti bor



axir» degan naql bejiz aytilmaganiga o'shanda amin bo'lgandim. Shu-shu onam eng yaqin «dugonam»ga aylandilar. Oyijonim o'qituvchilar, hayot tajribalari

ham biznikidan ancha ko'p. Maslahatlariga amal qilib kam bo'layotganim yo'q.

Shu o'rinda onasidan sir bekitadigan, biror joyga boradigan bo'lsalar, onalarini aldab ketadigan dugonalarimga «bu dunyoda onadan yaqinroq, azizroq inson yo'q. Do'st-yorlar, qarindosh-urug'larning ko'pi yaxshi, albatta. Lekin ularning hech biri bizga onamizdek to'g'ri yo'lni ko'rsata olmaydi», - degim

keladi.

*Saodatxon ILYOS qizi,
Toshkent viloyati,
Qibray tumani.*

Qulog'ingga gapim bor



Maktabimizda 9 - «D» sinfi bor. U sinfda o'qiydigan o'quvchilarning bari diskoteka desa, o'zini tomdan tashlaydiganlar xilidan. Nodira, Muqaddas va Farrux ismli sinfnig a'lochi

o'quvchilari bundan mustasno edi.

Bir kuni maktabimizda bayram o'tkazildi. Keyin esa maktabimizning kattagina zalida diskoteka bo'ldi. O'sha sinf o'quvchilari rosa «yayrashdi». Sinflaridagi uch a'lochini ham raqsga taklif qilishdi. Keyin esa



oshkora ularning ustidan kulishdi. Nodira bilan Muqaddas chiday olmay tashqariga chiqib ketishdi. Farrux ham ularga ergashdi...

O'qishlar ham tugab, shahodatnoma olish vaqti keldi. Nodira, Muqaddas va Farruxlar qizil shahodatnoma olishdi. Maktabni faqat uchga

O'YIN-KULGU BILAN BO'LIB...

tamomlagan ayrim o'yinqaroq qizlar uyalishni xayollariga ham keltirmadilar.

A'lochi sinfdoshlari turli kollejlarga o'qishga kirib olishgandagina, o'yin-kulgu bilan bo'lib, bilim olishni unutib qo'ygan bu qizlarning boshlari xam bo'lib, dugonalaridan kechirim so'rashdi.

*Iroda HAKIMOVA,
Shayxontohur
tumanidagi 320 - maktab
o'quvchisi.*

*Sahifani Toshkent shahri, Sobir Rahimov tumanidagi 249 - maktabning
9 - sinf o'quvchisi Nargiza JALILOVA tayyorladi.*

Qoyil-ey

Kunchiqar mamlakat Yaponiyada bolajonlarning ongiga vatan tarixini yoshlikdanoq singdirish maqsadida xilma-xil yangiliklar, kashfiyotlar o'ylab topishgan. Misol uchun bolalarning sevib iste'mol qiladigan shirinliklarini olib ko'raylik. Unda qadimgi afsonaning mashhur qahramoni - Kintaroning yuz qiyofasi tasvirlangan. Tanavvul

tayyorlab olinadi. Keyin ular qotirilib, yuz, ko'z, qosh, og'iz shakli chiqariladi. Bu bosqichda qandning yo'g'onligi va ko'rinishi aynan yuzni ifoda etmaydi. Qand cho'zilib, jipslashadi. Keyin bir xil qalinlikda pichoqda kesiladi. Shu zamon Kintaroning yuzi namoyon bo'ladi! «Biz bu shirinlikni asosan



AFSONAVIY QAHRAMON SHIRINLIKDA

qo'lda
bajaramiz», deydi

qandolatchi.


deydi. Shuningdek, Vatanabega aholi tomonidan o'z yuz qiyofasini qand shakliga tushirishni istab buyurtma berganlar ham ko'p.

Pokemon aks ettirilgan qandlar xaridorbop sanaladi.


Lekin afsonaviy qahramon Kintaroni hamma yapon bolalari bilisharkan. «Kintaro-ame no yoda!» - ushbu yaponcha ibora «bo'rttirmasiz, samimiy» degan ma'noni anglatadi. Haqiqatan qandning har birini ko'rsangiz, unda



qilayotgan bola beixtiyor Kintaro afsonasini yodga oladi, bilmaganlarga so'zlab beradi. Kintaro qandi bundan 120 yil muqaddam tokiolik qandolat firmasi tomonidan o'ylab topilgan. «Kintaro-ame Xonten» ushbu shirinlikni hanuz o'sha qadimiy usulda ishlab chiqaradi. Shirinlik uchun avvalo rang-barang siroplar



«Kintaro-ame Xonten» avlodining beshinchi vakili Vatanabe Tetsuo «Biz texnika yordamida bundan-da qiziqarli qiyofalarni va ko'rinishlarni aks ettirishimiz mumkin edi, biroq qo'l mehnati o'laroq vujudga kelgan bu qanddagidek ajoyib bo'lmasligi mumkin»,



Tug'ilgan kun yoki tantana bahona mezbon mehmonlarga o'zining surati aks ettirilgan shirinliklarni ulashadi. Undan tashqari juda ko'p multfilmlar qahramoni, ayniqsa,



havas qilgulik shaxs namoyon bo'laveradi.

**Muharrama
PIRMATOVA**
tarjimasi.

Yurtimizda barcha sevib o'ynaydigan sport o'yinlaridan biri bu shoxmotdir. Bu o'yin juda qiziqarli bo'lishi bilan birga aql-idrokni rivojlantiradi. Shoxmot birinchi bo'lib Hindistonning shimoliy o'lkalarida paydo bo'lgan ekan. Keyin bizning ajdodlarimiz ham bu o'yinga ixlosmand bo'lib, uning rivojiga katta hissa qo'shgan ekanlar. Qadimgi shoxmot bilan hozirgi shoxmot o'yini orasida juda katta farq bor. Ilgari bu

o'yin to'rt o'yinchiga mo'ljallangan bo'lib, taxtasi katta va donalari soni hozirgiga nisbatan ko'p bo'lgan ekan.

KELING,

SHAXMAT O'YNAYMIZ

Hozirda ham bu o'yinga qiziquvchilar soni kundan-kunga ortib bormoqda. Shoxmot maktablari va to'garaklari bunga misol bo'la oladi. Maktablarda esa turli


musobaqalar o'tkazilyapti.

Aziz bolajonlar! Sizlarga ham ushbu o'yinni o'ynashini maslahat beraman. Chunki shoxmot aqlni charxlovchi o'yin va chinakam san'at durdonasidir.

**Umida
AHMED XO'JAYEVA,**
Mirzo Ulug'bek
tumanidagi
18 - maktabning
7 - «D» sinf o'quvchisi.




Bizning to'garak



BULBUL

O'rmon gullab-yashnagan,
Bulbul sho'x kuy boshlagan.
Ovozi mayin, tiniq,
Zo'r hofizligi aniq.
Konsertiga olmas pul,
Faqat keltirishar gul.

Mehriniso
MAMARASULOVA,
Farg'ona shahri.



BOLALIGIM

Bolaligim o'tdi menga bildirmay,
O'tdi go'yo zilol suvlardek oqib.
Bolaligim ketdi menga bir so'z demay,
Qoldim yo'llariga mung ila boqib.

Bolaligim ketdi, men qoldim yolg'iz,
Qachon, nechun, qayga? Qiynar savollar.
Uzun sohillardan qidirib bir iz,
Ma'yusxol ko'rindi soydagi tollar.

Quyosh ham boqmasdi bunda jilvakor,
Kapalak qanotli qushlar uchmasdi.
Go'yo ularga ham yetgandek ozor,
Burgutlar bulutlar bag'rin quchmasdi.

Bunda yolg'on dunyo zarlari bekor,
Dildagi bo'stonim qayg'uga cho'mgan.
Endi bolaligim aytmagay alyor -
Foniy dunyo uni qalbinga ko'mgan.

Kamola UBAYEVA,
Poytaxtimizdagi 249 - maktabning
8 - «A» sinf o'quvchisi.




ASSALOM, YANGI KUN!

Tabiat, yer, osmon yana ko'rishdik,
Oppoq tong otmoqda biram beg'ubor.
Bir kunga ulg'ayib, aqlan to'lishdik,
Yangi kun muborak do'stu birodar.

Assalom iqboli baland zamondosh,
Zarvarag'in ochgin umr kitobim.
Meni tark etmagin, ey sabru bardosh,
Opichib yashayin orzu oftobin.

Kulib qarshi olay yo'qlab kelsa gar,
Hayotning ming bitta sinovlarin ham.
Shunchaki erkalab uyg'otma sahar,
Qalbim tug'yonlarin ko'chirgin qalam.

Dilshoda NURBOYEVA,
Samarqand viloyati,
Paxtachi tumani.



MEHRIBON ONAJONIM

Onajonim sog' bo'ling,
Doim ko'ngli tog' bo'ling.
Men agar nihol bo'lsam,
Siz men uchun bog' bo'ling.

Mehribonsiz juda ham,
Ardoqlaysiz siz bizni.
Onajoni o'stirsin,
Har bir o'g'lonu qizni.

Bobodehqonlar kabi,
Ekkaningizni o'ring.
Yuzga kiring onajon,
Rohat, baxtimiz ko'ring.

Xolida TO'XTAYEVA,
Jizzax viloyati,
Jizzax tumanidagi
30 - o'rta maktabning
8 - «A» sinf o'quvchisi.



Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Qalin o'rmon ichida bir donishmand Toshbaqa va o'yinqaroq Ohujon yashagan ekan...

Tengdoshingiz, Toshkent shahridagi 214 - maktabning 4 - «A» sinf o'quvchisi Malohat YO'LDOSHEVA chizib yuborgan ushbu rasmga qarab biz boshlagan ertakni davom ettiring va uni bizga albatta yozib yuboring.

O'ZIM PISHIRIB OLAMAN

Daraxtdan xom shaftolilarni uzib olayotgan jajji Dilmurodga otasi tanbeh berdi:

- Hoy, hoy o'g'lim nima qilyapsan? Shaftolilar hali pishmagan-ku.

- Qo'yavering dadajon, ularni gazning duxovkasida pishirib olaman,-dedi Dilmurod bamaylixtir qo'l siltab.

BOSHQACHA YO'L

Ahmad maktabdan juda kech qaytdi. Xavotirlangan onasi, shu paytgacha qayerlarda yuribsan, deya uni koyiy ketdi:

- Kech kelishimga sinf rahbarimiz aybdorlar,- dedi



Ahmad ko'zlarini pirillatib.- Agar o'quv yilini muvaffaqiyatli tugatmoqchi bo'lsang, boshqa yo'ldan yurgin degandilar.

KUCHLI YOMG'IR

Kuchli yomg'ir yog'moqda. Hamma har tarafga qarab yugurib ketyapti. Faqatgina bir bola sekin yurib ketyapti. Uni ko'rgan bir kishi: «O'g'lim, nega sen yugurmayapsan?» deb so'radi. U esa:

«Yugurganimdan nima foyda, baribir ro'paramda ham yomg'ir yog'yapti-ku» deb javob berdi.

Mahmudjon AZIMOV,
Toshkent shahar,
Shayxontohur
tumanidagi
169 - maktabning
6 - «A» sinf o'quvchisi.

ONA TILI DARSIDA

O'qituvchi:

- «Gulnoza gullarga suv quydi» degan gapdan otni topgin-chi?

O'quvchi:

- Ustoz hazillashyapsizmi, bu yerda ot nima qiladi?..

Durdona AVAZOVA,
Toshkentdagi
85 - maktabning
8 - «A» sinf o'quvchisi.

TOPISHMOQLAR

Uni tashlab ketmasang,
Seni tashlab ketmaydi.
Onang kabi mehribon,
Bag'ri juda kattakon.

(Vimmo).

Ko'rib ko'ngling quvaydi,
Yulduzlar-la o'ynaydi.
To'lsa deysan quyoshjon,
Tunda bo'ladi mehmon.



Malohat DO'SATOVA,
Qashqadaryo viloyati,
Qarshi tumanidagi
18 - o'rta maktabning
6 - «V» sinf o'quvchisi.

Qadim zamonda judayam bahaybat bir odam yashagan ekan. Uning kattakon hovlisi va mevazor bog'i bo'lgan ekan. Bahaybat odam tog'u toshlarda sayr qilishni, olis-olis o'lkalarga sayohat qilishni yoqtirgani bois, uyida juda kam bo'larkan. Uning yo'qligidan foydalanib, qo'shni dehqonlarning



bois, bog'iga kirgan o'g'il-qizlarni haydab solarkan. Bir kuni bog'ini baland va mustahkam qo'rg'on bilan o'rab olibdi. Shu-shu bu yerga hech kim kirolmaydigan bo'libdi...

O'sha yurtga yana bahor kelibdi. Quyosh o'zining zarrin nurlarini hech ayamay socha

baland devorlarni buzdirib tashlabdi. Ertasi kuni bog'ida sayrayotgan qushlarning ovozi eshitib, quvonib ketibdi. Qarasa, bog'dagi har bir daraxtning ustida ikki-uch nafardan o'g'il-qiz o'tirar, hali yaproq yozib, kurtak ham chiqarishga ulgurmagan daraxtlarida sarxil mevalar g'arq pishib yotardi. Bolajonlar bahaybat odamni ko'rib, qochishga shaylanishibdi. Shunda u: «Qo'rqmanglar bolajonlar, qochmanglar. Shu yerda, bog'imda qolinglar. U endi hammamizning bog'imiz», debdi. Shu tariqa bahaybat odam hamma joy odamlar bilan yanada go'zal, obod bo'lishini anglab yetibdi.

Faxriddin XOLIQOV,
Namangan viloyati,
To'raqo'rg'on tumani,
Kattaqo'rg'oncha
qishlog'i.

BAHAYBAT ODAM

bolalari uning bog'iga kirib, sarxil mevalardan yeb chiqisharkan. Shu bilan birga bog'dagi begona o'tlarni mol-xollari uchun terib olishar, suvsirab qolgan daraxtlarni sug'orib, uzumlarning ortiqcha novdalarini kesib, xomtok qilib ketisharkan. Shundanmi, mevalar g'arq pishgan, ishkamlardan osilib turgan uzumlar quyosh nurida tovlanib turar, ayniqsa, daraxtlardagi qushlarning sayrashi bog'ning tarovatiga yanada husn qo'shib turarkan.


Oradan yillar o'tib, bahaybat odam qarib qolibdi. U endi ishlay olmas, sayohatga ham chiqmay, uzdu-kun uyida o'tirarkan. Bolalarni yoqtirmagani

boshlabdi. Dehqonlarning bog'larida daraxtlar gullabdi. Sayroqi qushlar jo'shqin qo'shig'ini boshlabdi. Bahaybat odamning bog'iga esa bahor ham kelmabdi. Hamma narsa xuddi jonsizdek ekan. Bahor o'tib, yoz fasli kirib kelibdi hamki, bog'da jonlanish sezilmabdi. Boshqalarning bog'ida bir-biriga gal bermay sayrayotgan bulbullarning hech bo'lmaganda bittasi ham bahaybat odamning bog'iga oralamabdi.

Bahaybat odam uzoq o'ylabdi. Nihoyat o'z aybini tushunib, bog'i atrofidagi




BO'SH O'TIRMAI, BOSH QOTIR!



Bo'yiga: 1. Uy hayvoni. 3. Nomus, hayo. 4. Nota. 7. Yerning yo'ldoshi. 8. Ilk marotaba avtomobil yaratgan shaxsning ismi. 9. Ovchilarning «hunari». 10. Davlat Avtomobil Nazorati.

Eniga: 2. Faryod. 5. Radiokanallardan biri. 6. Temir uskuna, ya'ni to'rt oyoqli robot «ot»ni boshqaruvchi shaxs. 11. Qora oltin.

Tuzuvchi: Nigora ESHIMOVA,
Toshkentdagi arab tiliga ixtisoslashgan
29 - maktabning 8 - sinf o'quvchisi.



Aziz o'quvchilar!
Tengdoshingiz Hilola
EGAMBERDIYEVA chizgan
pokemonlarning 8 ta farqni
toping.

Ona yurtim - o'lim bo'libing
TONG
Yulduzi

O'zbekiston bolalari va
o'smirlarining gazetasi

Muassislar:
O'ZBEKISTON
MATBUOT VA AXBOROT
AGENTLIGI,
O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI XALQ
TA'LIMI VAZIRLIGI,
«KAMOLOT»
YOSHLAR IJTIMOIIY
HARAKATI,
«SOG'LOM AVLOD
UCHUN» XAYRIYA
JAMG'ARMASI

BOSH MUHARRIR:
Umida ABDUAZIMOVA
TAHRIR HAY'ATI:
Shuhrat AHMEDOV,
Jamoliddin FOZILOV,
Oynisa
MUSURMONOVA,
Qahramon
QURONBOYEV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir
o'rinbosari),
Po'lat MO'MIN,
Mukarrama MURODOVA,
Tohir MULLABOYEV,
Ergashvoy SARIQOV.

**Noshir «Ijod dunyosi»
nashriyot uyi.**

Gazeta «Ijod dunyosi»
nashriyot uyi kompyuter
bo'limida terib sahifalandi.
Hajmi A-3, 2 bosma
taboq.

«Sharq» nashriyot-
matbaa aksiyadorlik
kompaniyasida 46.291
nuxxada ofset usulida bosildi.
Korxona manzili: «Buyuk
Turon» ko'chasi, 41.

Buyurtma № Г-761
Gazetani
Muhabbat MAHSUDOVA
sahifaladi.
Navbatchi:
Muharrama PIRMATOVA

Ro'yxatdan o'tish tartibi
№ 000137
Manzilimiz: 700129,
Toshkent shahri, Navoiy
ko'chasi, 30-uy.

Tel: 144-62-34.
144-63-08